Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozori orqali resurs bazasini mustahkamlash masalalari tobora chuqurroq o'rganilmoqda. Xususan, S. Q. Raximboyevning 2025-yilda chop etilgan tadqiqotida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarini rivojlantirish orqali ularning investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif banklar tomonidan obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va boshqa moliyaviy instrumentlarni chiqarish fond bozori orqali uzoq muddatli resurslarni jalb etish imkonini berishini asoslab beradi. Tadqiqotda qimmatli qog'ozlar bozorining bank resurs bazasini diversifikatsiya qilishdagi o'rni yoritilib, bank aktivlari, jumladan, ta'minotli yirik kreditlar portfellarini moliyaviy instrumentlarga transformatsiya qilish orqali likvidlikni oshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Bu yondashuv banklarning an'anaviy depozit manbalariga qaramligini kamaytirish hamda barqaror moliyalashtirish modelini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega [14].

Shuningdek, B. O. Shomurodovning 2025-yilda e'lon qilingan ilmiy ishida banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish yo'llari tizimli tahlil qilingan. Muallif banklarning fond bozorida faol ishtirok etishi, xususan, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularni ikkilamchi bozorda joylashtirish orqali resurs bazasini kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi. Tadqiqotda bank aktivlarining sifatini oshirish, risklarni taqsimlash va investorlarga nisbatan shaffoflikni kuchaytirish qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayonining muhim ustunliklari sifatida ko'rsatib o'tiladi. Ushbu yondashuv ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish mexanizmlarining bank tizimi uchun strategik ahamiyatini tasdiqlaydi hamda kredit portfellarini sekuritizatsiya qilish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb etish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslaydi [15].

Umuman olganda, tahlil qilingan xorijiy va rusiyazabon ilmiy manbalar bank resurs bazasini kengaytirishda kapital bozori instrumentlaridan, xususan aktivlar va ta'minotli kreditlar asosida chiqariladigan qimmatli qog'ozlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yetarlicha shakllanganini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda bank kredit portfellarining sifati, ta'minot darajasi va risklarni boshqarish mexanizmlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, adabiyotlarda kapital bozori orqali uzoq muddatli resurslarni jalb qilish bank tizimi va real sektor o'rtasidagi moliyaviy bog'liqlikni mustahkamlashi ta'kidlanadi. Mazkur ilmiy qarashlar O'zbekiston bank tizimida ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish mexanizmlarini tadqiq etish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda milliy moliya tizimi sharoitida ushbu yondashuvni amaliy jihatdan o'rganish zaruratini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston bank tizimida ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali resurs bazasini kengaytirish mexanizmlarini o'rganish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari Markaziy bankning rasmiy statistik hisobotlari, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, kapital bozori faoliyatiga oid ochiq axborotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirildi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari va ilmiy manbalarda keltirilgan sekyuritizatsiya hamda aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarga oid empirik ma'lumotlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda taqqoslama tahlil, dinamik qatorlar tahlili va mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. Bank kredit portfellarining tuzilmasi, ta'minot darajasi va ularning kapital bozori instrumentlariga aylantirish imkoniyatlari o'zaro bog'liqlikda baholandi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida tizimli yondashuv asosida mavjud mexanizmlarning amaliy samaradorligi aniqlanib, ularning bank resurs bazasini kengaytirishdagi roli tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank tizimining resurs bazasi uning kreditlash imkoniyatlari, moliyaviy barqarorligi hamda real sektorni qo'llab-quvvatlash salohiyatini belgilovchi fundamental omillardan biri hisoblanadi. An'anaviy yondashuvda bank resurslarining asosiy qismi depozitlar hisobiga shakllantiriladi va bu holat banklar uchun nisbatan barqaror moliyalashtirish manbai sifatida qaraladi. Biroq iqtisodiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi, investitsion loyihalar ko'lamining kengayishi, infratuzilmaviy tashabbuslarning ortib borishi hamda uzoq muddatli moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bank tizimi oldiga resurs bazasini diversifikatsiya qilish vazifasini qo'ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, banklar tomonidan muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, xususan kapital bozori instrumentlaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan asoslangan va strategik ahamiyatga ega yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.



Mazkur sharoitda ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish bank resurslarini kengaytirishning zamonaviy va istiqbolli mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Bank kredit portfelining yirik va yuqori likvid ta'minot bilan ta'minlangan qismi, odatda, nisbatan past risk darajasiga ega bo'lgan aktivlar guruhiga kiradi. Ushbu kreditlar ko'chmas mulk, ishlab chiqarish infratuzilmasi, sanoat obyektlari, logistika markazlari yoki yuqori likvidli boshqa mulk bilan ta'minlangan bo'lib, ularning qaytish ehtimoli va barqarorligi yuqori hisoblanadi. Mazkur xususiyatlar ushbu kreditlarni nafaqat bank balansida saqlanadigan aktiv sifatida, balki kapital bozori ishtirokchilari uchun jozibador moliyaviy instrument sifatida ham ko'rib chiqish imkonini beradi.

Aynan shu jarayonda kredit portfellarini moliyaviy instrument sifatida qayta shakllantirish, ya'ni ularni qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlash mexanizmi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'minotli kreditlar asosida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar bank balansidagi aktivlarni bozor muomalasiga chiqarish orqali ularning likvidligini oshiradi. Natijada, bank balansida uzoq muddatga "muzlab qolgan" kredit resurslari kapital bozori orqali investorlarga taklif etilib, qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilinadi. Bu jarayon banklarga kreditlash hajmini oshirish, yangi investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda kredit portfelining tarkibini yanada optimallashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ta'minotli kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish banklarning aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kreditlar qisqa muddatli depozitlar hisobiga moliyalashtirilgan sharoitda likvidlik risklari kuchayishi mumkin bo'lsa, kapital bozori orqali jalb qilingan resurslar ushbu risklarni yumshatishga imkon beradi. Bu esa banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda kapital bozorini rivojlantirish, bank va korporativ obligatsiyalar chiqarishni kengaytirish hamda moliyaviy instrumentlar turini diversifikatsiya qilishga qaratilgan muhim institutsional va huquqiy asoslar shakllantirilmoqda. Banklar tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar hajmining bosqichma-bosqich ortib borishi ushbu yo'nalishning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Biroq mavjud amaliyotda bank qimmatli qog'ozlarining asosiy qismi qisqa yoki o'rta muddatli obligatsiyalar ko'rinishida bo'lib, ularning aksariyati bank balansidagi umumiy majburiyatlar bilan ta'minlanadi. Ta'minotli yirik kreditlar asosida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar esa yanada maqsadli, aktivlarga bevosita bog'langan va investorlar uchun aniq risk-daromad nisbatini taqdim etuvchi moliyalashtirish mexanizmini shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur mexanizmning muhim jihatlaridan biri risklarni qayta taqsimlash imkoniyatidir. Kredit risklarining bir qismi qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi investorlar zimmasiga o'tadi, bu esa banklarning risk konsentratsiyasini kamaytiradi. Shu bilan birga, kredit portfelining sifatli ta'minot bilan mustahkamlanganligi investorlar uchun ishonchlilik darajasini oshiradi. Natijada, banklar nisbatan qulay shartlarda va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'minotli kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish kapital bozorining rivojlanishiga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, bozorda yangi moliyaviy instrumentlar paydo bo'lib, investorlarga risk va daromadlilik darajasiga ko'ra turli tanlov imkoniyatlari yaratiladi. Ikkinchidan, institutsional investorlar, jumladan sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va pensiya jamg'armalari uchun uzoq muddatli va barqaror daromad manbai shakllanadi. Bu esa kapital bozorining chuqurlashuviga va uning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida mazkur mexanizmni joriy etish bank kredit portfellarining sifatini oshirishga ham turtki bo'ladi. Chunki qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayonida kreditlarning huquqiy rasmiylashtirilishi, ta'minotning likvidligi va baholanishi, shuningdek, qarz oluvchilarning moliyaviy holati yanada chuqur tahlil qilinadi. Bu jarayon banklarni kredit siyosatini takomillashtirishga, risklarni boshqarish tizimini rivojlantirishga va shaffoflikni oshirishga undaydi.

Mazkur mexanizmning yana bir muhim jihati bank tizimi va real sektor o'rtasidagi moliyaviy aloqalarni mustahkamlash bilan bog'liq. Ta'minotli yirik kreditlar, odatda, ishlab chiqarish, infratuzilma, energetika va boshqa strategik tarmoqlarga yo'naltiriladi. Ushbu kreditlar asosida chiqarilgan qimmatli qog'ozlar orqali jalb qilingan mablag'lar yana real sektorni moliyalashtirishga yo'naltirilishi natijasida investitsion sikl uzluksizligi ta'minlanadi. Bu esa iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'minotli kreditlar asosidagi moliyalashtirish mexanizmi davlat budjeti yuklamasini kamaytirishga ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Banklar uzoq muddatli resurslarni bozor mexanizmlari orqali jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lganda, iqtisodiyotdagi yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj nisbatan qisqaradi. Bu esa fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat moliyasining samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'minotli aktivlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish bank tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu mexanizm uzoq yillardan buyon muvaffaqiyatli qo'llanilib, banklar uchun muhim moliyalashtirish manbai sifatida shakllangan. O'zbekiston bank



tizimi uchun ham mazkur yondashuvni milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich joriy etish muhim strategik ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida ma'lumotlar¹

Yillar	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
2026	604 002	220 283	383 720	417 258	160 401	256 857
2025	533 121	177 532	355 589	308 692	122 421	186 272
2024	471 406	148 621	322 784	241 687	86 345	155 342
2023	390 049	100 949	289 100	216 738	63 124	153 614
2022	326 386	69 496	256 889	156 190	37 306	118 884
2021	276 975	54 888	222 087	114 747	27 404	87 343

Jadval ma'lumotlari 2021–2026-yillar davomida tijorat banklarida kreditlash hajmi va depozitlar dinamikasining barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Xususan, jami kreditlar hajmi 2021-yildagi 276 975 mlrd so'mdan 2026-yilda 604 002 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,2 baravarga oshgan. Ushbu o'sish bank tizimining real sektorni moliyalashtirishdagi roli sezilarli darajada kuchayganidan dalolat beradi. Kredit portfeli tarkibida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar ustun bo'lib, ularning ulushi barcha yillarda jami kreditlarning asosiy qismini tashkil etgan. Bu holat yirik investitsion va ishlab chiqarish loyihalarining asosan bank kreditlari hisobidan moliyalashtirilayotganini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar hajmi ham mutanosib ravishda oshib borgan bo'lsa-da, ularning umumiy kredit portfelidagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa bank kreditlashining ko'proq yirik va korporativ segmentga yo'naltirilganligini, shuningdek, ta'minotli yirik kreditlar ulushi yuqoriligini bilvosita tasdiqlaydi.

Depozitlar dinamikasi kreditlar o'sishiga nisbatan sekinroq rivojlanganini ko'rish mumkin. 2021-yilda jami depozitlar 114 747 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkich 417 258 mlrd so'mga yetgan. Shu bilan birga, kreditlar va depozitlar o'rtasidagi tafovut yil sayin kengayib borgan. Bu holat banklarning resurs bazasida depozitlarning yetarli darajada o'smasligi va kreditlash hajmini qo'llab-quvvatlash uchun muqobil moliyalashtirish manbalariga ehtiyoj kuchayayotganini ko'rsatadi.


Depozitlar tarkibida yuridik shaxslar depozitlarining ustunligi saqlanib qolgan bo'lsa-da, jismoniy shaxslar depozitlarining ulushi ham bosqichma-bosqich oshib borgan. Biroq ushbu o'sish sur'atlari bank kreditlash hajmini to'liq qoplash uchun yetarli emas. Mazkur holat ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali bank resurs bazasini kengaytirish mexanizmlarini joriy etishning dolzarbligini statistik jihatdan asoslab beradi.

Umuman olganda, ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish bank resurs bazasini kengaytirish, kapital bozorini rivojlantirish va iqtisodiyotni uzoq muddatli investitsiya resurslari bilan ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv bank tizimining barqarorligini mustahkamlash bilan birga, moliyaviy vositachilik rolini kuchaytiradi hamda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston bank tizimida ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali resurs bazasini kengaytirishning strukturaviy–konseptual modelining asosiy maqsadi - O'zbekiston bank tizimida ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish (sek'yuritizatsiya) orqali banklarning resurs bazasini kengaytirish mexanizmini tizimli ravishda izohlashdan iborat. Model bank aktivlari va kapital bozori instrumentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berib, bank resurslarini shakllantirishda muqobil moliyalashtirish manbalarining rolini tushuntiradi.

Modelning birinchi bosqichida banklar tomonidan yirik hajmdagi ta'minotli kreditlar ajratilishi ko'zda tutiladi. Ushbu kreditlar odatda yirik korporativ qarz oluvchilar, uzoq muddatli kredit shartnomalari, yuqori likvidli ta'minot, yani ko'chmas mulk, ishlab chiqarish aktivlari, davlat kafolatlari kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Blok bank aktivlarining sifatini belgilovchi boshlang'ich nuqta hisoblanadi (1-rasm).

1 Manba: Cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



1-rasm. O'zbekiston bank tizimida ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali resurs bazasini kengaytirishning strukturaviy-konseptual modeli²

Kredit portfelini shakllantirish va standartlashtirish deb nomlangan ikkinchi bosqichda ajratilgan yirik kreditlar portfelga jamlanadi (pooling) va moliyaviy instrument sifatida qayta ishlash uchun tayyorlanadi. Bu bosqichda kreditlar risk darajasi bo'yicha tasniflanadi va to'lov jadvali va foiz oqimlari standartlashtiriladi, hamda kredit portfelni investorlarga tushunarli shaklga keltiriladi. Ushbu blok risklarni diversifikatsiya qilish va sek'yuritizatsiya jarayoniga tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

Eng muhim blok sek'yuritizatsiya mexanizmi bo'lib, bu bosqichda banklar kredit portfelni asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayonini amalga oshiradi va bu jarayon maxsus maqsadli kompaniya (SPV) tashkil etish, kreditlar SPV balansiga o'tkazilishi va kredit oqimlari asosida qimmatli qog'ozlar emissiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Natijada moliyaviy aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (Asset-Backed Securities, ABS) yoki Ipoteka kreditlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (Mortgage-Backed Securities, MBS) shakllanadi. Bu bosqich bank kredit aktivlarini bozor instrumentlariga aylantirishni ta'minlaydi.

Kapital bozori va investorlar deb nomlangan to'rtinchi blokda sek'yuritizatsiya qilingan qimmatli qog'ozlar kapital bozorida joylashtiriladi va institutsional investorlar, pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari investorlari tomonidan sotib olinadi. Investorlar uchun asosiy jozibadorlik omillari sifatida barqaror pul oqimi, ta'minot bilan kafolatlangan risk darajasi va uzoq muddatli investitsiya imkoniyati hisoblanadi. Bu blok bank tizimi va moliya bozori o'rtasidagi integratsiyani aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval. Aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (ABS) va ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (MBS) ning taqqoslovchi tavsifi³

Taqqoslash mezonlari	Asset-Backed Securities (ABS)	Mortgage-Backed Securities (MBS)
Ta'minot manbai	Turli moliyaviy aktivlar: iste'mol kreditlari, avtokreditlar, lizing, korporativ kreditlar	Faqat ipoteka, ya'ni ko'chmas mulk garovi asosidagi kreditlar
Asosiy aktiv turi	Diversifikatsiyalangan kredit portfelni	Uy-joy va ko'chmas mulk ipoteka kreditlari
Pul oqimi manbai	Kreditlar bo'yicha foiz va asosiy qarz to'lovlari	Ipoteka kreditlari bo'yicha foiz va asosiy qarz to'lovlari
Risk darajasi	O'rtacha (aktiv turiga bog'liq)	Nisbatan pastroq, sababi ko'chmas mulk bilan ta'minlangan
Muddat xususiyati	O'rta muddatli instrumentlar	Uzoq muddatli instrumentlar
Investorlar uchun jozibadorlik	Yuqori daromadlilik imkoniyati	Barqaror va prognoz qilinadigan pul oqimi
Bank uchun afzallik	Kredit portfelni likvid aktivga aylantiradi, riskni taqsimlaydi	Uzoq muddatli resurs jalb qiladi, likvidlikni oshiradi
Qo'llanilish sohasi	Keng: iste'mol va korporativ kreditlash	Asosan ipoteka bozori rivojlangan mamlakatlarda
Sek'yuritizatsiya turi	Umumiy aktivlar sek'yuritizatsiyasi	Ipoteka sek'yuritizatsiyasi (maxsus yo'nalish)

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Modelning yakuniy beshinchi bosqichida banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hisobidan qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilinadi. Bu quyidagi natijalarga olib keladi

- bankning uzoq muddatli likvidligi oshadi;
- depozitlarga qaramlik kamayadi;
- kreditlash hajmi va barqarorligi kuchayadi;
- aktiv-passivlarni boshqarish samaradorligi oshadi.

Natijada bank tizimida barqaror va diversifikatsiyalangan resurs bazasi shakllanadi. Qurilgan bu strukturaviy–konseptual model bank tizimida kredit aktivlarini kapital bozor instrumentlariga aylantirish orqali resurs bazasini kengaytirish mexanizmini izohlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston bank tizimida ta'minotli yirik kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali resurs bazasini kengaytirish zamonaviy moliyaviy rivojlanish sharoitida muhim va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur mexanizm banklarning an'anaviy depozit resurslariga bo'lgan yuqori darajadagi bog'liqligini kamaytirish, uzoq muddatli va barqaror moliyaviy manbalarni shakllantirish hamda kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'minotli kreditlar asosida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar kapital bozorining chuqurlashuvi, moliyaviy instrumentlar turining kengayishi va investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yirik va yuqori likvid ta'minotga ega kreditlar bank aktivlari tarkibida nisbatan past riskli bo'lib, ularni moliyaviy instrumentga aylantirish banklar uchun qo'shimcha likvidlik manbai yaratadi. Ushbu yondashuv banklarning aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi muvozanatni yaxshilash, risklarni samarali boshqarish hamda real sektorni uzoq muddatli investitsiya resurslari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, bank tizimi va real sektor o'rtasidagi moliyaviy aloqalar mustahkamlanib, iqtisodiy o'sishning barqaror manbalari shakllanadi.

Mazkur yo'nalishni yanada rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, ta'minotli kreditlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va ushbu instrumentlarning huquqiy mexanizmlarini yanada aniqlashtirish zarur. Ikkinchidan, bank kredit portfellarining sifatini oshirish, ta'minot obyektlarini baholash va monitoring qilishning yagona metodologik yondashuvlarini joriy etish investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, institutsional investorlar, jumladan sug'urta kompaniyalari, investitsiya va pensiya jamg'armalarining ushbu qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirokini rag'batlantirish orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslar oqimini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, banklar uchun amaliy yo'riqnomalar ishlab chiqish, malakali kadrlar tayyorlash va moliyaviy shaffoflik darajasini oshirish ta'minotli kreditlar asosidagi moliyalashtirish mexanizmini samarali joriy etishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur yondashuv O'zbekiston bank tizimining barqaror rivojlanishi, kapital bozorining institutsional mustahkamlanishi hamda iqtisodiyotni uzoq muddatli investitsiya resurslari bilan ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. IMF. Global Financial Stability Report. Market Developments and Issues. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2023. – 182 p.
2. World Bank. Global Financial Development Report: Financial Intermediation and Capital Markets. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 214 p.
3. Fabozzi F.J. Bond Markets, Analysis and Strategies. – 10th ed. – Boston: Pearson Education, 2021. – 896 p.
4. Gorton G., Metrick A. Regulating the Shadow Banking System. – Brookings Papers on Economic Activity. – Washington, DC, 2019. – 48 p.
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 12th ed. – New York: Pearson, 2022. – 720 p.
6. European Central Bank. Securitisation and Financial Stability in the Banking System. Analytical Report. – Frankfurt am Main, 2021. – 134 p.
7. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Financial Market Infrastructures. – Basel: Bank for International Settlements, 2020. – 188 p.
8. Gennaioli N., Shleifer A., Vishny R. Crisis Economics: A Crash Course in the Future of Finance. – Princeton: Princeton University Press, 2018. – 256 p.
9. OECD. Capital Market Instruments for Long-Term Financing. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 172 p.
10. Hull J.C. Risk Management and Financial Institutions. – 6th ed. – Hoboken: Wiley, 2022. – 768 p.
11. Смирнова Н.В. Финансовые рынки и институциональные изменения в банковской системе. – Москва: Инфра-М, 2021. – 312 с.
12. Кудрин А.Л., Бусаргин А.В. Банковское дело и финансовая устойчивость: теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 256 с.



13. Афанасьев В.А. Ценные бумаги и фондовый рынок: учебник. – Москва: Юрайт, 2022. – 384 с.
14. Raximboyev S.Q. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari // Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Qabul qilingan: 28-iyun 2025-yil; ma'qullangan: 30-iyun 2025-yil; nashr qilingan: 31-iyul 2025-yil. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16788001>
15. Shomurodov B.O. Bankning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish yo'llari // SYNAPSES: Insights across the Disciplines. – 2025. – 2(1). – B. 120–126. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14795651>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
